

AZIM SUYUN "QAYIRMA" LARIDA OBRAZLILIK

Sulaymonova Saodatxon Murodil qizi

FarDU talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik davrida barakali qalam tebratgan mohir ijodkor Azim Suyunning zamonaviy adabiyotga olib kirgan kashfiyoti - qayirmalarining ham she'riy, ham nasriy qismlari tahlilga tortilib, ulardagi badiiy san'atlar va obrazlar tabdil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qayirma, mubolag'a, undalma, avtopsixologik she'r, meditatif lirika, tazod, ritmik qurilish, izometrik she'r, getrometrik she'r

Mustaqillik davri badiiy adabiyotida, xususan, she'riyatida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, har xil uslub va shakllarni yangilash, ularga yangi g'oya va obrazlarni singdirish, hamda janr sifatida adabiyotga kiritish uchun intilish kuchaydi. Bu yo'nalishda yoshlar bilan bir qatorda malakali, suyagi qotgan ijodkorlar ham salmoqli qalam tebratdi. Ulardan biri "qayirma"lar deb nomlanadigan yangi shaklni kashf etgan ustoz Azim Suyundir. U she'riy

qayirmalar bilan bir qatorda nasriy qayirmalarga ham qo'l urgan.

"Qayirma" so'zi izohli lug'atda quyidagicha talqin qilinadi: "qayriladigan, qaytariladigan; bukiladigan".<sup>1</sup> Shu o'rinda shoir qayirmalari haqidagi bir fikrga to'xtalsak: "She'riy shakl ustidagi izlanishlar natijasida u poetik ifodaning "Qayirma" deb atalmish qulay janrini kashf etdi".<sup>2</sup> Izlanishlar natijasida Azim Suyunning 2018-yil she'riy va nasriy qayirmalardan iborat "Akademnashr" tomonidan "Ey do'st yoxud Azimona" kitobi chop etildi (Quyida qavs ichida beriladigan izohlar shu manbadan olingan) va o'qirmanlar bilan bir qatorda tanqidchi, shoirlarning alohida e'tiborini tortdi: "Azim Suyunning qayirmalarini ko'pdan buyon kuzatib kelaman. Bu qayirmalar Sharq mumtoz she'riyati ummonidan "suv ichayotgani", yani Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug donishmandlaridan asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik lo'ndalik kabi fazilatlarga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davralarda tog'-toshlarga o'yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e'tiborga loyiqdir".<sup>3</sup>

Azim Suyunning qayirmalarida chindan ham lo'ndalik, teranlik, ixchamlik, shular bilan bir qatorda hayotiy tajriba, falsafiy va tasavvufiy yondashuv kuzatiladi:

Ey do'st!

Tangrim Odam Atoni odam yaratdi,

Momo Havoni ynga Hamdam yaratdi.

O, aslida aqlu kuch egasini

Ishqu ilhom bilan ko'rkam yaratdi. (6)

Yana bir qayirmasida ijodkor ayolni shunday ta'riflaydiki, goyoki u o'lim Qilichiga Qalqondir:

Ey do'st!

Tabiatda o'lim - eng qudratli Kuch,

Undan ham qudratli, shaksiz, bu Ayol.

O'lim - tiriklikka urilgan Qilich,  
Ayol - shu Qilichga Qalqon betimsol! (6)

Bu misralar orqali muallif ayolning sabr-u matonatini, farzandi uchun, yaqinlari uchun o'lim Qilichi qarshisiga Qalqon bo'lib chiqishga ham tayyorligini ta'kidlaydi.

Ijodkorning qayirmalaridagi yana bir jihatga e'tibor qilmaslikning iloji yo'q. Bu esa "Ey do'st!" undalmasidir. Undalma har dir qayirmaning boshida har xil talqinda: murojaat, iltijo, achinish, iztirob ma'nolarida har o'rinda yangicha ohang kasb etgan. Bu esa shoirning mahoratini ko'rsatib, misralarning mohiyatini keng va chuqurroq anglashga debocha vazifasini o'tagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ey do'st!  
Yoqaversang tosh ham yonar,  
Toshdan bo'lgan bosh ham yonar.  
Yor ishqida... aravamni  
O'tin qildim, shosh ham yonar. (34)

Ushbu misralarda asosiy obraz "avtopsixologik she'rlarning bir ko'rinishi sifatida olingan meditativ lirikaning predmeti shoirning ko'nglidir ki, bunda shoirning ko'nglidan kechayotgan oniy kechinmalar, doim ham mantiqiy idrok etish va tushuntirish mushkul tuyg'ular ifodalangan".<sup>4</sup>

Bundan tashqari, ijodkorning qayirmalarida, nafaqat, yoriga ishq, Allohga bo'lgan ilohiy ishq yoritilgan tasavvufiy misralari ham mavjud.

Ey do'st!  
Hoziriyu huzurini o'ylaguvchi sas,  
Go'zallik - Tangri jamolin tasavvur etmas.

O, Haqiqat go'zallikda! Qashshoq, gadodir-  
Kim Ilohiy go'zallikka imon keltirmas.(49)

"Vatanni sevmoq iymondandir ". Vatanni sevmoq chindan buyuk tuyg'u. Buni his qilish, tuyush, qadriga yetish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Shoir ta'kidlaganidek,

"Eng buyuk jasorat - Vatan taqdiri yo'lida qilingan jasoratdir ".(278). Ijodkor o'z Vatanini, ayniqsa, Vatanining - umrining bir bo'lagi bo'lmish Nakurt qishlog'ini juda yaxshi ko'rgan. Shuning uchun bo'lsa kerak ijodkorning Vatan haqidagi xoh she'riy, xoh nasriy qayirmalarini o'qir ekanmiz,

ularda o'ziga xos ohangni, mehrni his qilishimiz mumkin:

Ey do'st!

Vatandan begona joyda baxt yo'q, yo'q,  
Magarkim baxt bo'lsa Vatan - taxt yo'q, yo'q.  
Ariq bo'lsin ikki qoshim o'rtasi -  
Vatan suvi oqsin, o'zga ahd yo'q, yo'q. (141).

Yana bir qayirmasida Vatanining, hatto, toshining tarixi borligini aytadi : "Vatanim tog'ida yotgan toshning ham tarixi bor. Faqat uning tilini uqmoq lozim ".(278) Bu jumlada tosh obrazida ramziylik bor. Chunki muallif Vatanining tarixi shunchalar buyuk va Ko'hnaki, uni bildirish uchun mubolag'a tariqasida go'yo toshining o'tmishi ham Ko'hnaligini ta'kidlaydi.

Quyidagi misralarda esa ijodkor tazod san'atidan unumli foydalangan:

Ey do'st!

Ishq - vafo, ishq - jafo, jondan kechasiz,

Hilol u - Oy bo'lib to'la -fo'lduncha.

Ishq -chashma, ishq -sharob, har kun ichasiz

Va lekin to'y maysiz o'la -o'lguncha.(9).

Asosiy obraz bu yerda oshiqdir. U boshidan o'tgan, boshiga kelgan "vafo" va "jafo"ga yorni kutib o'ylab o'tkazgan kunlari hamda ishq qo'llaridan ichgan "chashmasi"-yu u yo'lda chekkan iztiroblari sabab totgan sharobiga urg'u bermoqda. Buni qarangki, ishq yo'lidagi yaxshiliklar, rohatlar bilan birga kelgan qiyinchiliklarga ham, o'la-o'lguncha to'y masligini so'nggi misrada aytib o'tmoqda. Chunki oshiq chindan yordan kelayotgan yaxshiliklar-u sitamlarni qabul qilishga tayyor bo'ladi. Shu o'rinda Hazrati Alisher Navoiyning: "Suyuklikdan kelgan dardlar suyukli "-,degan so'zlari yodimizga keladi.

Azim Suyun qayirmalarining e'tibor tortadigan bir jihati borki, bu ham bo'lsa, har bir qayirmaning ritmik qurilishi turlicha. Misol uchun, quyidagi she'r izometrik (misralardagi bo'g'inlar soni bir xil bo'lgan) she'r bo'lib, undagi bo'g'in, turoqlar o'z maromida bo'lingan:

Ey do'st!

Ayol qalbi cheksiz / sirlar ummoni, 11

Tugal bilmoq nasib / bo'lmagay oni. 11

Goho dur axtarsang / tosh bo'lib chiqar, 11

Goho tosh izlasang, / chiqar dur koni. (16) 11

Ammo ushbu misralarda esa bu holatning aksi namoyon bo'ladi:

Ey do'st!

Adolatu / siyosat oboddir, 10

Molu mulk, ganju / davlat oboddir. 10

Obod ersa / yor quchog'iga, 9

Ruh oboddir / jismu tal'at oboddir. (37) 11

Ya'ni misralardagi bo'g'inlar turoqlar soni -getrometrikdir.

Xulosa qilib aytganda, Azim Suyunning qayirmalari turli mavzularni qamrab olgan: ishq, tabiat, oila, jamiyat, vatan, er-xotin munosabatlari, ayol mavzulari shular jumlasidandir. Ularda o'ziga xos ohang, ritm mavjud. Ijodkor ushbu kashfiyotlari orqali qalbidagi aytmoqchi bo'lgan barcha so'zlarini to'liq bayon etgan va ulardagi asosiy obraz o'zi-ko'nglidir!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati".Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.B.212
2. Yo'ldosh Q. Ey do'st yoxud Azimona. Toshkent, "Akademnashr". 2018.B.434
3. Oripov A. Ey do'st yoxud Azimona. Toshkent, "Akademnashr". 2018.B.3
4. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.B.187